

## TARIX FANLARINI O‘QITISHDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

**Achilova Fotima Qurbonovna**

*Shahrisabz shahar 7-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi*

**Annotatsiya:** *Maqola tarix fanlarini o‘qitishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlarini yoritishga qaratilgan. Tadqiqotning maqsadi — tarix ta’limi jarayoniga sun’iy intellekt vositalarini integratsiyalash orqali o‘quvchilar bilimni chuqurlashtirish va o‘qitish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini tahlil qilishdir. Usul sifatida taqqoslash, tahlil, ilmiy adabiyotlarni o‘rganish hamda amaliy qo‘llanmalarni tahliliy o‘rganish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari sun’iy intellekt texnologiyalari tarixiy ma’lumotlarni vizualizatsiya qilish, shaxsiylashtirilgan o‘qitish va interaktiv o‘quv muhitini yaratishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Maqola yakunlari tarix fani o‘qituvchilari uchun sun’iy intellekt integratsiyasi o‘qitishning sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ta’kidlaydi. Xulosa sifatida, sun’iy intellekt tarix ta’limini modernizatsiya qilishda strategik vosita ekanligi asoslab berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Sun’iy intellekt, tarix ta’limi, ta’lim texnologiyalari, raqamli pedagogika, individual ta’lim, vizualizatsiya.*

### KIRISH

Bugungi globallashtirish va raqamli transformatsiya jarayonlari ta’lim sohasida yangicha metodlarni qo‘llashni talab qilmoqda. Ayniqsa tarix fanlarini o‘qitishda katta hajmdagi ma’lumotlarni o‘rganish, tarixiy jarayonlarni tahlil qilish va ularni zamonaviy talqinlar bilan solishtirishda raqamli texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sun’iy intellekt texnologiyalari o‘quvchilarni tarixiy voqealar bilan chuqurroq tanishtirish, zamonaviy ta’lim berish va murakkab tarixiy jarayonlarni virtual modellashtirish orqali o‘quv jarayonini sezilarli darajada boyitadi. Mazkur maqola tarix ta’limida sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilishga bag‘ishlanadi.

Asosiy qism. Hozirgi kunda sun’iy intellekt ta’limning deyarli barcha yo‘nalishlarida qo‘llanmoqda va juda katta samaradorlik bermoqda. Ta’limda sun’iy intellektdan foydalanishning bir qator afzalliklari bor. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitishda har bir o‘quvchining bilim darajasiga qarab mos topshiriq beradi. Tezkor tahlilda o‘quvchilar xatolarini, o‘zlashtirish darajasini real vaqt rejimida aniqlaydi. Doimiy kuzatuv va baholashda avtomatik baholash, test natijalarini chuqur tahlil qiladi. Vaqtni tejaydi, o‘qituvchi ko‘p vaqt oladigan jarayonlarni, test tuzish, tekshirish, hisobot tayyorlashni avtomatlashtiradi. Cheksiz resurslar, ya’ni videodarslar, simulyatorlar, interaktiv topshiriqlar, virtual laboratoriyalarni taqdim etadi.

Sun'iy intellekt — bu kompyuterlar va dasturiy tizimlarning inson aqliy faoliyatiga xos bo'lgan funksiyalarni bajarish, ya'ni, o'rganish, tahlil qilish, qaror qabul qilish, muloqot qilish, muammolarni hal qilish qobiliyatidir.

Sun'iy intellekt dasturlari ma'lumotlarni o'rganadi, tajribadan xulosa chiqaradi va vaziyatga mos ravishda mustaqil yechim taklif qila oladi.



**1-rasm. Qadimgi Kesh shahrida savdo-sotiq jarayonlari.**

Sun'iy intellektning tarix fanini o'qitishdagi o'rni juda keng va zamonaviy ta'lim jarayonini tubdan o'zgartirayotgan yo'nalishlardan biridir. O'quv jarayonini individuallashtirish, interaktiv va vizual o'rgatish, tarixiy manbalarni tahlil qilish, test va baholash jarayonini avtomatlashtirish, tarixiy ma'lumotlarning ishonchliligini aniqlash, interaktiv tarixiy o'yinlar va simulyatsiyalar, tarixiy til va matnlarni o'rganishda yordamchi sifatida asosiy jihatlarni keltirish mumkin.

Sun'iy intellekt tarixiy ma'lumotlarni qayta ishlash vositasi sifatida sun'iy intellekt algoritmlari tarixiy manbalarni tahlil qilish, ularni avtomatik tasniflash va o'quvchilar uchun qisqa, tushunarli mazmun yaratishda yordam beradi, raqamlashtirilgan arxiv materiallari, xaritalar, hujjatlar va matnlar sun'iy intellekt yordamida tizimli ravishda taqdim qilinib, o'quv jarayonini osonlashtiradi.

Tarixiy voqealarni vizual modellashtirishda (1-rasm) sun'iy intellekt asosidagi virtual reallik va kengaytirilgan reallik texnologiyalari tarixiy janglar, qadimiy shaharlar (2-rasm), madaniy meros ob'yektlarini 3D formatda jonlantirish imkonini beradi. Bunday vizualizatsiya talabalarda tarixiy tafakkurni kuchaytiradi, o'quv jarayonini qiziqarli va yodda qolarli qiladi.



**2-rasm. Qadimgi Kesh shahrining sun'iy intellektda yaratilgan tasviri.**

Individual o'qitish imkoniyatida sun'iy intellekt har bir o'quvchining bilim darajasi, xarakteri, o'zlashtirish tezligini aniqlab, individual o'quv yo'nalishlarini taklif etadi. Bu o'qituvchiga sinfdagi umumiy bilim darajasini muvozanatlashtirishga yordam beradi.

Interaktiv testlar va intellektual baholash tizimida sun'iy intellekt asosida yaratilgan testlar o'quvchining xatolarini avtomatik tahlil qiladi, sabablarini ko'rsatadi va individual maslahatlar beradi. Tarixiy sanalar, voqealar ketma-ketligi va sabab-oqibat munosabatlarini mustahkamlash uchun avtomatlashtirilgan o'yin elementlari qo'llaniladi.

Tarixiy manbalarni tahlil qilishda sun'iy intellekt yordamchi sifatida tarixiy matnlar, qo'lyozmalar, eski xaritalar sun'iy intellekt yordamida restavratsiya qilinadi yoki aniqlik darajasi oshirilgan holda qayta tiklanadi. Bu tadqiqotchilar va talabalar uchun noyob ilmiy materiallar bilan ishlash imkoniyatini kengaytiradi.

O'quvchilarning tarix faniga bo'lgan qiziqishlari ortadi, tasavvurlari kengayadi, sun'iy intellekt bilan ishlash ko'nikmalari shakllanadi, darsda faolligi ortadi, yanda ko'proq motivatsiya oladi.

## XULOSA

Tarix fanlarini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanish nafaqat ta'lim jarayonining sifatini oshiradi, balki o'quvchilarni mustaqil izlanishga undaydi, tarixiy voqealarni chuqurroq anglashga yordam beradi. Sun'iy intellekt vositalari tarixiy ma'lumotlarni vizual, interaktiv va tizimli shaklda taqdim etish orqali o'quv jarayonini modernizatsiya qiladi. Natijada, tarix ta'limi zamonaviy global talablar bilan uyg'unlashtirilgan, samaradorligi yuqori bo'lgan pedagogik jarayonga aylanadi. Shunday qilib, sun'iy intellekt tarix ta'limini innovatsion rivojlantirishning muhim strategik omillaridan biri hisoblanadi.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:**

[1] Ergashev R., Rakhmonov S. “O‘zbekistonda raqamli ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish.” Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali, 2023.

[2] Gafurova N. Raqamli kompetensiyalar va sun’iy intellekt asosida ta’limni modernizatsiya qilish. — Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022.